

Nasr ibn Ali



Nasr ibn Ali

Nasr Eloqxon

(?-1012, O'zgan)

(999-1012)

Movarounnahr ilik xoni. **Qoraxoniylardan**. Hokimiyat tepasida rasman hukmdor akasi **Ahmad ibn Ali Arslonxon** edi. 996 yilda qoraxoniylarning Movarounnahrga hujum qilganida boshchilik qilgan. Buxoroni egallash bilan Movarounnahrning bosib olinishini nihoyasiga yetkazgan (999 yil oktabr). Somoniylar amiri **Abdumalik ibn Nuh** va uning qarindosh-urug'lari asir qilib, O'zgandagi zindonga tashlangan. Shu tariqa qudratli bo'lgan somoniylar sulolasi qulagan. 1000-1005 yillarda ilik **Nuh ibn Ali** somoniylar hokimiyatini tiklashga harakat qilgan **Muntasirga** qarshi kurashgan va g'alaba qilgan. 1000 yil **Mahmud G'aznaviy** Nuh ibn Ali bilan o'z yerlari o'rtasidagi chegaralarni belgilash to'g'risida bitim tuzgan, unga ko'ra, Amudaryo asosiy chegara qilib belgilangan. Natijada somoniylar davlati o'rnida ikkita yangi davlat tashkil topgan: birinchisi – Qashqardan Amudaryogacha cho'zilgan, Sharqiy Turkistonning bir qismini, Yettisuv, Shosh, Farg'ona va qadimgi Sug'd hududini o'z ichiga olgan **qoraxoniylar**; ikkinchisi – Shimoliy Hindiston chegarasidan tortib Kaspiy dengizining janubiy qirg'oqlarigacha cho'zilgan, hozirgi Afg'oniston va Shimoli-Sharqiy Eron viloyatlarini o'z ichiga olgan **G'aznaviylar davlati**. Biroq Nasr ibn Ali Xurosonni bosib olish niyatidan butunlay voz kechmagan edi.

1006 yil va 1008 yillarda qoraxoniylar Xurosonga ikki marta yurish qilganlar. 1006 yildagi yurish chog'ida **Mahmud G'aznaviy** Hindistonda edi. Qoraxoniy qo'shinlari Balx, Tus va Nishopurni bosib olganlar. Biroq **Mahmud** Hindistondan qaytib kelib, ularni quvib yuborgan. 1008 yildagi Balx yaqinidagi jangda Mahmud qo'shinida 500 ta fil bor edi. Nasr ibn Ali qo'shini tor-mor etilib, qoraxoniylarning Amudaryoning janubidagi hududlarini egallash yo'lidagi harakatlari shu tarzda to'xtatilgan.

Nasr ibn Ali nihoyatda jasur va dovyurak, imon, e'tiqodli shaxs bo'lib, u haqda ko'plab rivoyatlar to'qilgan. **Jamol Qarshiyning** yozishicha, Nasr ibn Ali buyuk nomdor xoqon, juda ko'p fazilatlar sohibi bo'lgan va hijriy 402 yil (1011-1012)da O'zganda vafot etib, o'sha yerda dafn etilgan.

2023-10-29 20:59:58